INSON HUQUQLARI BÖYIÇA ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVÇI DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGAŞ

INSON HUQUQLARI BÖYIÇA ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

AXMADOV OYBEK OTABEKOVIÇ

ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI VA ISLOM HAMKORLIK TAŞKILOTINING INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI HAMKORLIGINING DOLZARB MASALALARI

12.00.13. – Inson huquqlari

Yuridik fanlar böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toşkent – 2026

UÖK: 341.231.14:341.176(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Axmadov Oybek Otabekoviç
Özbekiston Respublikasi va Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari sohasidagi hamkorligining dolzarb masalalari……..3

Ахмадов Ойбек Отабекович
Актуальные вопросы сотрудничества Республики Узбекистан и Организации исламского сотрудничества в области прав человека……...21

Akhmadov Oybek Otabekovich
Current issues of cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Organization of Islamic Cooperation in the field of human rights.....43

E'lon qilingan işlar röyxati
List of published works
Список опубликованных работ.....48

INSON HUQUQLARI BÖYIÇA ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVÇI DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGAŞ

INSON HUQUQLARI BÖYIÇA ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

AXMADOV OYBEK OTABEKOVIÇ

ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI VA ISLOM HAMKORLIK TAŞKILOTINING INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI HAMKORLIGINING DOLZARB MASALALARI

12.00.13. – Inson huquqlari

Yuridik fanlar böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toşkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Yu576 raqam bilan röyxatga olingan

Dissertatsiya işi Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uç tilda (özbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengaşning veb-sahifasida (www.nhrc.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylaştirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Saidov Akmal Xolmatoviç,** akademik, yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonoviç** yuridik fanlar doktori, professor
	Mirhamidova Mahinnora Nurullayevna yuridik fanlar falsafa doktori, dotsent
Etakçi taşkilot:	**Özbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvçi DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 raqamli Ilmiy kengaşning 2026 yil "4" dekabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bölib ötadi (Manzil: 100029, Toşkent şahar, Islom Karimov köçasi, 15-uy, tel. +99871 239 40 23, email: info@nhrc.uz).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanişiş mumkin (16- raqam bilan röyxatga olingan). (Manzil: 100029, Toşkent şahar, Islom Karimov köçasi, 15-uy, tel. +99871 239 40 23).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "20" noyabr kuni tarqatildi.

(2026 yil "20" noyabr, 16- raqamli reestr bayonnomasi).

M.A.Tillabaev
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş raisi, yuridik fanlari doktori, professor

Ö.S. Oçilov
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş kotibi, yuridik fanlari doktori, dotsent

G.Yuldaşeva
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş huzuridagi ilmiy seminar raisi yuridik fanlar doktori, professor

Kiriş (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda inson huquqlarini ta’minlaş masalasi jahon siyosatining ustuvor yönalişlaridan biriga aylanib, davlatlarning xalqaro maydondagi nufuzi va hamkorlik darajasi köp jihatdan mazkur sohadagi holat bilan baholanmoqda. Sönggi yillarda global tahlillar şuni körsatmoqdagi, inson huquqlari bilan boğliq vaziyat murakkabligiça qolmoqda. Xususan, BMT Taraqqiyot dasturining (UNDP) inson xavfsizligi böyiça hisobotida qayd etilişiça, dunyo aholisining 60 foizdan ortiği özini turli tahdidlardan himoyalanmagan deb hisoblaydi[1]. Şuningdek, Gyoteborg universiteti huzuridagi V-Dem (Varieties of Democracy) xalqaro instituti ma’lumotlariga köra, global miqyosda demokratik institutlar va inson huquqlarining çeklaniş tendentsiyasi kuzatilib, er yuzi aholisining 71 foizi (taxminan 5,7 milliard kişi) inson huquqlari va erkinliklari çegaralangan şaroitda yaşamoqda[2]. Bundan taşqari, Jahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project) ketma-ket oltinçi yil insoniyatning 78 foizi istiqomat qiladigan davlatlarda qonun ustuvorligi va asosiy huquqlarni ta’minlaş körsatkiçlari pasayganini qayd etgan[3]. Kambağallik va gender tengsizligi saqlanib, bu inson huquqlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarida tizimli muammolar borligini namoyiş etmoqda. Bu holat xalqaro hamkorlik mexanizmlarini takomillaştiriş zaruratini körsatadi va mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Jahonda inson huquqlariga oid xalqaro şartnomalarni milliy qonunçilikka implementatsiya qiliş, xalqaro va milliy huquq normalari uyğunligini ta’minlaş hamda davlatlararo institutsional hamkorlikni rivojlantiriş masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Islom hamkorlik taşkiloti (IHT) doirasida ayollar, bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar huquqlarini ta’minlaş muhim ahamiyat kasb etmoqda[4]. Ayrim ma’lumotlarga köra, IHTga a’zo davlatlarda aholining taxminan 35 foizi ijtimoiy himoya tizimlari bilan töliq qamrab olinmagan bölsa, ayrimlarida xotin-qizlarning mehnat bozoridagi iştiroki 20–25 foiz atrofida qolmoqda. Ba’zi a’zo davlatlarda ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalaniş imkoniyatlarining çeklanganligi, şuningdek gender tengligi muammolari saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagi holatlar ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ta’minlaş mexanizmlarini takomillaştiriş va xalqaro hamkorlikni çuqurlaştiriş hamda inson huquqlarini ta’minlaşda xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillaştiriş zarurligini belgilaydi.

---

[1] New Threats to Human Security in the Anthropocene: Demanding Greater Solidarity. – New York: United Nations Development Programme (UNDP), 2022. – P. 3. //URL: https://hdr.undp.org/system/files/documents/srhs2022pdf.pdf (Мурожаат қилинган сана: 14.05.2026).

[2] Democracy Report 2024: Democracy Winning and Losing at the Ballot. – University of Gothenburg: V-Dem Institute, 2024. – P. 10. //URL: https://v-dem.net/documents/43/v-dem_dr2024_highres.pdf (Мурожаат қилинган сана: 14.05.2026).

[3] WJP Rule of Law Index 2023. – Washington, DC: World Justice Project, 2023. – P. 14. //URL: https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/ (Мурожаат қилинган сана: 14.05.2026).

[4] Ислом ҳамкорлик ташкилоти 57 та давлатни қамраб олган бўлиб, уларда жами 2 миллиардга яқин аҳоли яшайди. БМТ маълумотларига кўра, қочоқлар ва мажбурий кўчирилганларнинг катта қисми шу ҳудудга тўғри келади.

Yangi Özbekiston va Islom hamkorlik taşkiloti örtasidagi hamkorlik izçil rivojlanib, inson huquqlari sohasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoev aytganidek, **"Özbekiston Islom hamkorlik taşkiloti bilan ham izçil özaro hamkorlikni rivojlantirmoqda va uni muqaddas islom dini qadriyatlarini saqlaş hamda rivojlantiriş, musulmon xalqlar örtasidagi birdamlikni mustahkamlaş, ularning taraqqiyoti va ravnaqiga kömaklaşişga qaratilgan samarali böğin sifatida baholaydi"**[1]**.** 2020 yil qabul qilingan IHTning Inson huquqlari böyiça Qohira deklaratsiyasi kabi xalqaro-huquqiy hujjatlar milliy qonunçilikni takomillaştiriş va inson huquqlarini himoya qiliş mexanizmlarini mustahkamlaşda muhim huquqiy asos bölib xizmat qiladi. Şuningdek, IHT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantiriş, xalqaro standartlarni milliy qonunçilikka samarali tatbiq etiş hamda mavjud hujjatlar ijrosini tahlil qilişga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytiriş muhim ahamiyatga egadir.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), "Xalqaro şartnomalar töğrisida"gi qonun (2019), Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgaça möljallangan ustuvor yönalişlari doirasida islohotlarni izçil davom ettiriş va yangi bosqiçga olib çiqişning qöşimça çora-tadbirlari töğrisida"gi Farmoni (2026), Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi Özbekiston yoşlari — 2030" strategiyasini tasdiqlaş hamda yoşlarni har tomonlama qöllab-quvvatlaş çora-tadbirlari töğrisida"gi Farmoni (2026) va mavzuga oid boşqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oşirişga uşbu dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanişining ustuvor yönalişlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanişining I. "Axborotlaşgan jamiyat va huquqiy demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirişda innovatsion ğoyalar tizimini şakllantiriş va ularni amalga oşiriş yöllari" ustuvor yönalişiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning örganilganlik darajasi. Mamlakatimizda yuridik fanlar doirasida Özbekiston Respublikasi va Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari sohasidagi hamkorligining dolzarb masalalari maxsus monografik tadqiqot ob'ekti sifatida örganilmagan. Şu bilan birga, tadqiqot mavzusining u yoki bu jihatlari A.Saidov, M.Tillabaev, M.Mirhamidova, A.Muxtorov, D.Ibrohimova, M.Xalmurodov, D.Salomova, N.Mahkamova, F.Qöysinova, N.Muhamedov, J.Musaev, D.Eşonqulova, A.Rahmonov va boşqa olimlar ilmiy işlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdöstligiga a'zo mamlakatlarning A.Abaşidze, L.Syukiyaynen, M.Başimov, D.Muflixanova, V.Yakunin, A.Balaşov, N.Alimova, G.Gadjiev, R.Xasanov, L.Galiyaskarova, R.Lukyanova, A.Malaşenko, O.Balaşev, N.Varlamova, V.Kartaşkin, A.Smirnova, J.Muratova kabi olimlari tomonidan tadqiqot işlari olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlardan esa E.Brems, E.Ihsanoglu, M.Petersen, T.Kayaoglu, R.Blitt, S.Farrar, N.Ahmad, J.Korbel, Dj.Donnelli, A.Maer, A.Al-Ahsan,

[1] Мирзиёев Ш.М. "Янги Ўзбекистон стратегияси". - Т.: "O'zbekiston", 2021 й., 357-б.

A.Açikgul, M.Baderin, M.Ozkan, I.Kalin, Ş.Haşmat, M.Dilek, A.An-Nayim, R.Blitt, A.Sankar, I.Şarqiex va boşqa olimlar tomonidan Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari sohasidagi hamkorligi bilan boğliq masalalar talqin qilingan[1].

Biroq yuqorida kelitirilgan tadqiqotlar tahlili Özbekiston va Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari böyiça hamkorligining nazariy va amaliy muammolari, Özbekiston Respublikasi qonunçiligi, şuningdek uşbu sohaga oid xalqaro hujjatlar hamda boşqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida kompleks tadqiqot işi sifatida alohida tadqiqot ob'ekti bölmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot işlari rejalari bilan boğliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi ilmiy-tadqiqot işlari rejasiga muvofiq amalga oşirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Özbekiston va Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari sohasidagi hamkorligini inson huquqlari nuqtai nazaridan tahlil qiliş, uning xalqaro-huquqiy jihatlarini oçib beriş hamda inson huquqlarini himoya qiliş samaradorligini oşiriş böyiça taklif va tavsiyalar işlab çiqişdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

IHT inson huquqlari sohasidagi faoliyatining huquqiy asoslarini örganiş;

IHT inson huquqlari sohasidagi xalqaro şartnomalarining xususiyatlarini oçib beriş;

IHTning inson huquqlari böyiça asosiy organlari va Inson huquqlari böyiça mustaqil doimiy komissiyasi hamda IHTga a'zo davlatlarning inson huquqlari böyiça milliy institutlari faoliyatining huquqiy asoslarini çuqur tahlil qiliş;

Özbekiston Respublikasining IHT bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligining hozirgi holatini örganiş;

Özbekistonni IHT bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligini takomillaştiriş masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalar işlab çiqiş.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Özbekiston va IHT örtasida inson huquqlari sohasidagi hamkorlik natijasida yuzaga keladigan xalqaro-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmeti Özbekiston va IHT örtasida inson huquqlari sohasidagi hamkorlikni huquqiy tartibga solişga qaratilgan xalqaro şartnomalar, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qöllaş amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunçiligi hamda ilmiy-nazariy qaraş va yondaşuvlar taşkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, sotsiologik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, induksiya va deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etiş, statistik ma'lumotlar tahlili kabilardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Özbekiston Respublikasi va IHT örtasida inson huquqlari sohasidagi hamkorlikni rivojlantiriş, IHTning Yoşlar forumi bilan hamkorlik örnatiş zarurati, yoşlarning huquq va erkinliklarini ta'minlaş sohasida tajriba almaşiş, yoşlar huquqlarini himoya qilişga qaratilgan xalqaro taşabbuslarni qöllab-quvvatlaş

[1] Адабиётлар рўйҳатида берилади.

hamda mazkur yönalişda özaro hamkorlik mexanizmlarini takomillaştiriş nuqtai nazaridan asoslab berilgan;

Samarqand forumi asosida Osiyoda inson huquqlari böyiça mintaqaviy mexanizmni joriy etişga qaratilgan loyihani IHT va boşqa tegişli xalqaro taşkilotlar bilan hamkorlikda işlab çiqiş, Özbekiston Respublikasi va IHT örtasida inson huquqlari sohasidagi hamkorlikni rivojlantiriş, mintaqada inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlaşning institutsional mexanizmlarini takomillaştiriş hamda xalqaro va mintaqaviy tajribani özaro uyğunlaştiriş nuqtai nazaridan asoslab berilgan;

inson huquqlarini himoya qiliş va ularga rioya etiş, şuningdek, BMT Barqaror rivojlaniş maqsadlarini amalga oşiriş sohasida IHT va boşqa xalqaro taşkilotlar bilan ikki tomonlama va köp tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantiriş, inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlaşga xizmat qilişi asoslantirilgan;

IHTning Inson huquqlari böyiça mustaqil doimiy komissiyasi bilan hamkorlikni rivojlantiriş, inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy amaliyotga joriy etiş, ilğor tajriba almaşiş va inson huquqlarini ta'minlaş mexanizmlarini takomillaştiriş uçun qöşimça imkoniyatlar yaratiş lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

IHTning inson huquqlari sohasidagi norma ijodkorligi rivojlanişining özига xos xususiyatlari hamda 1990 yildagi Islomda inson huquqlari böyiça Qohira deklaratsiyasi va 2020 yildagi IHTning inson huquqlari böyiça Qohira deklaratsiyalarining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida IHTning inson huquqlariga oid hujjatlarida qöllaniladigan "islom qadriyatlari va printsiplari" hamda xalqaro inson huquqlari standartlari örtasidagi özaro nisbatni milliy qonunçilikda hisobga oliş böyiça takliflar işlab çiqildi;

IHTning inson huquqlariga oid hujjatlarining huquqiy maqomi, ularning xalqaro şartnomalardan farqli jihatlari va milliy qonunçilikka ta'sirini tahlil qiliş asosida IHT hujjatlarida belgilangan inson huquqlari va erkinliklariga oid qoidalarni milliy qonunçilikni takomillaştiriş jarayonida qöllaşning huquqiy mexanizmlarini rivojlantiriş, şuningdek, xalqaro majburiyatlar va tavsiyaviy xususiyatdagi hujjatlar örtasidagi farqlarni aniq belgilaş böyiça takliflar asoslandi;

IHTning inson huquqlariga oid normativ hujjatlari va BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar töğrisidagi xalqaro pakti qoidalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qiliş asosida söz erkinligi, diniy bağrikenglik va xotin-qizlar huquqlarini ta'minlaşda xalqaro standartlarni milliy qonunçilikka tatbiq etişning huquqiy asoslarini takomillaştiriş böyiça takliflar işlab çiqildi;

IHTga a'zo davlatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy tizimlarini tahlil qiliş asosida Özbekiston Respublikasining dunyoviy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy printsiplarini hisobga olgan holda IHTning inson huquqlariga oid hujjatlarini milliy huquqiy tizimga moslaştirişda inson huquqlarining umume'tirof etilgan xalqaro standartlari, vijdon va diniy e'tiqod erkinligini ta'minlaş talablariga rioya etişning huquqiy mezonlarini belgilaş böyiça takliflar asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining işonçliligi inson huquqlari sohasidagi milliy qonunçilik normalari, ilğor xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qöllaş amaliyotiga asoslangan. Bundan taşqari, **sotsiologik sörovnoma** *(700 dan ortiq respondent)* statistik ma'lumotlarni tahlil qiliş orqali asoslangani, şuningdek, olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan ötkazilib, ularning natijalari etakçi milliy va xorijiy ilmiy naşrlarda e'lon qilingani, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan inson huquqlari sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borişda, qonun ijodkorligida, milliy qonunçilikni takomillaştirişda hamda "Xalqaro huquq", "Xalqaro inson huquqlari huquqi", "Inson huquqlari böyiça xalqaro taşkilotlar huquqi" kabi fanlarni öqitişda foydalaniş imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** esa undagi xulosa va takliflardan Özbekiston va Islom hamkorlik taşkiloti örtasida inson huquqlarini himoya qiliş sohasidagi hamkorlikni rivojlantiriş, inson huquqlari kafolatlarini kuçaytiriş, ularni ta'minlaş mexanizmlarini takomillaştiriş hamda xalqaro inson huquqlari standartlarini amalga oşiriş samaradorligini oşirişda foydalaniş mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinişi. Özbekiston Respublikasi va Islom Hamkorlik Taşkiloti örtasida inson huquqlari sohasidagi hamkorlikni takomillaştirişga doir olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

Islom hamkorlik taşkilotining Yoşlar forumi bilan hamkorlik örnatiş taklifidan Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan «Özbekistonda yoşlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgaça rivojlantiriş Kontseptsiyasi»ning 2-ilovasi, 11-bobi, 61-bandini işlab çiqişda foydalanilgan *(Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 21 sentyabrdagi № 09-09-53-son dalolatnomasi)*. Uşbu taklif yoşlar huquq va manfaatlarini ta'minlaş sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantiriş, Islom hamkorlik taşkilotining Yoşlar forumi bilan özaro aloqalarni mustahkamlaş hamda yoşlarga oid davlat siyosatini amalga oşirişda xalqaro tajribadan foydalanişga xizmat qilgan;

Samarqand forumi asosida Osiyoda inson huquqlari böyiça mintaqaviy mexanizmni joriy etiş böyiça loyihani tegişli xalqaro taşkilotlar, jumladan, IHT va boşqalar bilan hamkorlikda işlab çiqiş zarurligi haqidagi taklifdan Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi Kengaşining va Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşining 2023 yil 10 iyundagi 3272-IV/QK-521-IV-sonli Qöşma qarori bilan tasdiqlangan BMT Inson huquqlari böyiça Oliy komissarining Özbekistonga taşrifi yakunlari yuzasidan tavsiyalarini amalga oşiriş böyiça «YÖL XARITASI»ning 31-bandini şakllantirişda foydalanilgan *(Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026 yil 22 sentyabrdagi №3/dn-221-son dalolatnomasi)*. Uşbu taklif Osiyoda inson huquqlari böyiça mintaqaviy mexanizmni joriy etiş, inson huquqlari sohasida xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni kengaytiriş hamda

mazkur yönalişda tegişli xalqaro taşkilotlar bilan hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirişga xizmat qilgan;

Inson huquqlarini himoya qiliş va ularga rioya etiş, BMT Barqaror rivojlaniş maqsadlarini amalga oşiriş böyiça IHT va boşqa xalqaro taşkilotlar bilan ikki tomonlama va köp tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantiriş taklifidan Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi «Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi» PF-6012-son Farmoni 4-bobi, 5-qismi, 2-bandini işlab çiqişda foydalanilgan *(Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazining 2026 yil 24 sentyabrdagi №01/1176-son dalolatnomasi)*. Uşbu taklif Özbekistonning inson huquqlari sohasida xalqaro taşkilotlar, xususan, IHT bilan ikki tomonlama va köp tomonlama hamkorligini rivojlantiriş, xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy amaliyotga joriy etiş hamda inson huquqlarini himoya qiliş sohasidagi xalqaro hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlaşga xizmat qilgan;

Islom hamkorlik taşkilotining Inson huquqlari böyiça doimiy mustaqil komissiyasining 21-sessiyasi doirasida «Biznes va inson huquqlari: qonuniy asoslari va IHTga a'zo-davlatlarda implementatsiya jarayoni» mavzusidagi seminarda Özbekiston Respublikasi delegatsiyasi iştirokini ta'minlaş taklifidan Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 maydagi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nişonlaş töğrisida»gi PF-70-son Farmoni ilovasining 5-bobi, 23-bandini işlab çiqişda foydalanilgan *(Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazining 2026 yil 24 sentyabrdagi №01/1176-son dalolatnomasi)*. Uşbu taklif Özbekiston Respublikasining Islom hamkorlik taşkiloti doirasida inson huquqlari sohasidagi hamkorligini mustahkamlaş, biznes va inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni örganiş hamda mazkur yönalişda ilğor xalqaro tajribani milliy amaliyotga joriy etişga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 4 respublika miqyosida ötkazilgan ilmiy-amaliy konferentsiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan ötgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinişi. Dissertatsiya mavzusi böyiça jami 11 ta ilmiy iş naşr etilgan, jumladan OAK tomonidan röyxatga olingan milliy jurnallarda 5 ta hamda xorijiy jurnallarda 3 ta, milliy va xorijiy ilmiy anjuman töplamlarida esa 3 ta maqola va tezislar naşr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilişi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kiriş, etti paragrafni öz içiga olgan uçta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar röyxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni taşkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kiriş" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanişining asosiy ustuvor yönalişlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning örganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot işlari rejalari bilan boğliqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari,

ob’ekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining işonçliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, şuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilişi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinçi bobi **“Islom hamkorlik taşkilotining tuzilişi va uning inson huquqlari böyiça organlari”** deb nomlanib, IHTning inson huquqlari sohasidagi asosiy organlari, ularning faoliyatining huquqiy asoslari hamda IHTga a’zo davlatlarning inson huquqlari böyiça milliy institutlari faoliyatini örganişga bağişlangan.

Mazkur bobning birinçi paragrafida Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari böyiça asosiy organlari faoliyatining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda IHTning inson huquqlari böyiça asosiy organlari qatoriga Inson huquqlari böyiça mustaqil doimiy komissiyasi (IHMDK), Gumanitar masalalar böyiça departamenti, Tinçlik, xavfsizlik va mojarolarni hal qiliş guruhi, Ayollar taraqqiyoti taşkiloti hamda Xalqaro Islom sudi kiritilgan. IHMDK 2011 yilda taşkil etilgan bölib, uning asosiy vazifalariga maslahat beriş, IHT mamlakatlaridagi inson huquqlari bilan boğliq vaziyatni tahlil qiliş va iştirokçi davlatlarga tavsiyalar beriş kirişi, Komissiyaning 18 nafar a’zodan iboratligi, ular IHTga a’zo davlatlar örtasida teng geografik taqsimot (arab mamlakatlaridan 6, Osiyo qit’asidan 6 va Afrika qit’asidan 6 nafar) asosida IHT Taşqi işlar vazirlari Kengaşi tomonidan uç yil muddatga saylanişi qayd etilgan.

Islom hamkorlik taşkiloti doirasida gumanitar yordam, tinçlik va xavfsizlikni ta’minlaş hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirişga qaratilgan institutsional mexanizmlar faoliyat yuritadi. 2008 yilda taşkil etilgan Gumanitar masalalar departamenti gumanitar yordamni muvofiqlaştiriş, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etiş va xalqaro hamkorlikni rivojlantiriş vazifalarini amalga oşiradi. IHT Siyosiy masalalar departamenti tarkibidagi Tinçlik, xavfsizlik va mojarolarni hal etiş bölinmasi mojarolarning oldini oliş, vositaçilik va tinçlikni mustahkamlaşga qaratilgan taşabbuslarni ilgari suradi. Şuningdek, Xotin-qizlarni rivojlantiriş taşkilotining nizomi 2010 yilda qabul qilingan bölib, uning faoliyati 2021 yilda Qohiradagi qarorgohining oçilişi bilan boşlangan. Taşkilot xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ta’lim va madaniyat sohalaridagi imkoniyatlarini kengaytiriş hamda jamiyat hayotidagi iştirokini kuçaytirişga xizmat qiladi.

Xalqaro Islom sudi 1987 yili V Islom sammitida nizomi tasdiqlangan bölsa-da, hozirga qadar faoliyat körsatmaydi, çunki uni ratifikatsiya qilgan davlatlar soni etarli emas. Paragrafda şuningdek IHTning asosiy organlari faoliyatiga olimlarning turli munosabatlari – A.E.Mayer va A.An-Naimning tanqidiy pozitsiyasi, A.Sankar va M.Tillabaevning ijobiy baholari, M.Başimovning ehtiyotkor yondaşuvi – tahlil qilingan.

Bobning ikkinçi paragrafida IHT IHMDK faoliyatining huquqiy asoslari batafsil yoritilgan. Tadqiqotda IHMDK IHTning asosiy organlaridan biri hisoblanib, u IHT tizimidagi inson huquqlari masalalariga alohida e’tibor qaratadigan asosiy institut ekani, uning taşkil etilişi 2005 yilda qabul qilingan IHTning ön yillik Harakatlar dasturi doirasida taklif qilinib, 2008 yil IHT yangi

Nizomida e’tirof etilgani va 2011 yil 28-30 iyun kunlari Ostonada bölib ötgan IHTga a’zo mamlakatlar Taşqi işlar vazirlari Kengaşining 38-sessiyasida qabul qilingan rezolyutsiyasiga muvofiq rasman işga tuşirilgani qayd etilgan.

IHT IHMDKning asosiy maqsad va vazifalari Komissiya Nizomining 8–11-moddalarida belgilangan bölib, ular inson huquqlarini ilgari suriş, a’zo davlatlarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlaşga qaratilgan sa’y-harakatlarini qöllab-quvvatlaş, IHTga a’zo bölmagan davlatlardagi musulmon jamoalari va ozçiliklarning huquqlariga rioya etilişini kuzatiş, şuningdek, xotin-qizlar, yoşlar va alohida ehtiyojli şaxslar huquqlarini ilgari suriş hamda ularga nisbatan zöravonlik va kamsitişning barça şakllariga barham berişga kömaklaşişni qamrab oladi.

Muallif Komissiyaning mandati BMTning Inson huquqlari böyiça kengaşi yoki Amerika davlatlari taşkilotining Inson huquqlari böyiça komissiyasi kabi "qattiq" nazorat funktsiyalariga ega bölgan organlardan farqli ölaroq, "yumşoq" huquq mexanizmi sifatida şakllantirilganini, uning Nizomida davlat hisobotlarini körib çiqiş yoki individual şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlari mavjud emasligini ta’kidlagan. Paragrafda Komissiya faoliyatiga olimlarning turli munosabatlari – M.Baderin va A.Saidning ijobiy pozitsiyasi, A.E.Mayer, T.Kayaoğlu va R.Ç.Blittning tanqidiy qaraşlari, M.Yu.Petersen va I.Çismasning muvozanatlaşgan yondaşuvlari – batafsil tahlil qilingan. Şuningdek, Komissiyaning mustaqilligi masalasi, uning institutsional tuzilişi (a’zolarning hukumatlar tomonidan nomzod qilib körsatilişi va Taşqi işlar vazirlari kengaşi tomonidan saylanişi) va mandatning çeklanganligi (tergov huquqlarining yöqligi va a’zolarning davlat nomzodi sifatida saylanişi) uning samaradorligiga salbiy ta’sir körsatişi, Komissiyaning samaradorligini oşiriş uçun mandatni kengaytiriş, a’zolarni tanlaş mezonlarini özgartiriş va islom huquqini progressiv talqin qiliş kabi takliflar işlab çiqilgan.

Bobning uçinçi paragrafida Islom hamkorlik taşkilotiga a’zo davlatlarning inson huquqlari böyiça milliy institutlari faoliyatining huquqiy asoslari örganilgan. Tadqiqotda inson huquqlari böyiça milliy institutlar (IHMI) milliy darajada inson huquqlarini himoya qiliş va rağbatlantiriş tizimining muhim böğini ekani, ular fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilişini ta’minlaş, inson huquqlari böyiça xalqaro standartlarga rioya etilişini nazorat qiliş va bu boradagi vaziyatni yaxşilaş böyiça tavsiyalar berişda muhim rol öynaşi qayd etilgan. IHMI faoliyatining xalqaro-huquqiy asoslaridan biri 1993 yil 20 dekabrda BMT Boş Assambleyasining 48/134-son rezolyutsiyasi bilan ma’qullangan Inson huquqlarini rağbatlantiriş va himoya qiliş bilan şuğullanuvçi milliy institutlar maqomiga doir Parij printsiplari hisoblanadi. Mazkur printsiplarga muvofiq, milliy institutlarning vakolatlari konstitutsiyaviy yoki qonunçilik hujjatida aniq belgilab qöyilişi, ularning mustaqilligi va faoliyati samaradorligi uçun zarur şart-şaroitlar ta’minlanişi lozim.

Şuningdek, IHMI inson huquqlarini rağbatlantiriş va himoya qiliş masalalari böyiça parlament, hukumat va boşqa vakolatli organlarga tavsiyalar, takliflar hamda hisobotlar taqdim etiş, mamlakatdagi inson huquqlari holati va muayyan muammolar yuzasidan tahliliy hisobotlar tayyorlaş, xalqaro inson huquqlari

hujjatlarini ratifikatsiya qiliş yoki ularga qöşilişga kömaklaşiş, milliy qonunçilik va amaliyotning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlaşga hissa qöşiş vakolatlariga ega bölişi kerak. Şikoyatlarni qabul qiliş va körib çiqiş vakolati esa milliy institutning huquqiy maqomi va unga berilgan vakolatlarga boğliq.

Muallif IHTga a’zo davlatlarning aksariyati (deyarli 60 foizi) öz mamlakatlarida IHMI taşkil etganini, uşbu IHMIlar BMT va IHTning institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilib, inson huquqlarini himoya qiliş xalqaro tizimining bir bölagi ekanini qayd etgan. Paragrafda IHTga a’zo davlatlardan 3 tasining Konstitutsiyasida IHMIlari haqida normalar mavjud bölib, bular Özbekiston (56-modda), Marokaş (161-modda) va Tunis (128-modda) ekani alohida ta’kidlangan.

Özbekistondagi IHMIlar – Oliy Majlisning Inson huquqlari böyiça vakili (Ombudsman) (1995), Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi (1996), Prezident huzuridagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qiliş böyiça vakil (Biznes-ombudsman) (2017) hamda Bola huquqlari böyiça vakil (Bolalar ombudsmani) (2021) – faoliyatining huquqiy asoslari batafsil yoritilgan. Şuningdek, paragrafda IHTga a’zo davlatlar IHMIlari faoliyatiga olimlarning munosabatlari – A.E.Mayerning tanqidiy pozitsiyasi, T.Kayaoğluning himoyaviy qaraşlari, M.Yu.Petersen va I.Çismasning muvozanatlaşgan yondaşuvlari, R.Ç.Blittning metodologik tanqidi, V.A.Kartaşkinning sekulyar model bilan soliştirgan tahlili hamda A.Saidovning ijobiy bahosi – tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinçi bobi “Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari sohasidagi xalqaro norma ijodkorligi faoliyati” deb nomlanib, IHTning inson huquqlari sohasidagi normativ-huquqiy faoliyatining huquqiy asoslari, xalqaro şartnomalarining öziga xos xususiyatlari hamda uşbu hujjatlarning ilmiy-amaliy tahliliga bağişlangan.

Mazkur bobning birinçi paragrafida Islom hamkorlik taşkiloti inson huquqlari sohasidagi faoliyatining huquqiy asoslari örganilgan. Tadqiqotda Islomda inson huquqlariga munosabat juda öziga xos ekani, Ğarb ilmiy doiralarida inson huquqlari faqat 1789 yilgi Frantsuz inqilobi deklaratsiyasi yoki 1948 yilgi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasidan boşlangan degan qaraş ustuvorlik qilsa-da, Islom huquq tizimi va manbalarini çuqurroq örgangan tadqiqotçilar bu fikrning biryoqlama ekanini ta’kidlaydilar. Islomda inson huquqlari "beş zarurat" kontseptsiyasi (Makasid aş-şaria) orqali 14 asr avval mustahkamlab qöyilgan bölib, bular: jonni muhofaza qiliş (yaşaş huquqi), aqlni muhofaza qiliş (fikrlaş va e’tiqod erkinligi), dinni muhofaza qiliş, naslni muhofaza qiliş (oila huquqi) va mulkni muhofaza qiliş (xususiy mulk daxlsizligi) hisoblanadi[1].

Muallif IHTning inson huquqlari sohasidagi faoliyatining huquqiy asoslari qatoriga IHT Nizomi (1972, 2008 yilgi tahrirlari), 1983 yilgi Dakka deklaratsiyasi, 1990 yilgi Qohira deklaratsiyasi, 2020 yilgi yangi IHT Inson huquqlari böyiça Qohira deklaratsiyasi, “Islomda bolalar huquqlari töğrisida”gi pakt (2005), şuningdek IHTning Ayollar taraqqiyoti taşkiloti nizomi kabi hujjatlarni kiritgan. Tadqiqotda IHT 1969 yil 25 sentyabrda Marokaşning Rabot şahrida bölib ötgan tarixiy sammitda, Avstraliya fuqarosi Denis Maykl Rohanning Quddusdagi

[1] Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Исломда инсон ҳуқуқлари. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2019. – Б. 34-36.

Masjidul-Aqsoga öt qöyişi voqeasidan keyin taşkil etilgani, taşkilotning dastlabki maqsadlari musulmon davlatlar örtasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar böyiça birdamlikni ta'minlaş, mustamlakaçilik, neomustamlakaçilik va irqçilikka qarşi kuraşiş hamda Falastin ozodlik taşkilotini qöllab-quvvatlaş bölgani yoritilgan.

IHT 2011 yilgaça Islom konferentsiyasi taşkiloti deb atalgani, 2011 yil 28 iyun kuni Ostona şahrida (Qozoğiston Respublikasi) ötkazilgan Taşqi işlar vazirlarining 38-sessiyasida Islom hamkorlik taşkilotiga özgartirilgani qayd etilgan. Şuningdek, paragrafda IHTning inson huquqlari sohasidagi yondaşuviga olimlarning turli munosabatlari – A.E.Mayerning tanqidiy pozitsiyasi, M.Baderinning huquqiy plyuralizm nuqtai nazari, T.Kayaoğluning pragmatik tanqidi, A.An-Naimning metodologik e'tirozlari, şuningdek, I.Kalin, Ş.A.Haşmat, M.Dilek kabi olimlarning Falastin masalasiga oid qaraşlari tahlil qilingan.

Ikkinçi paragrafda esa Islom hamkorlik taşkiloti inson huquqlari sohasidagi xalqaro şartnomalarining hususiyatlari oçib berilgan. Tadqiqotda IHTning inson huquqlari böyiça xalqaro şartnomalari islom qadriyatlarini umuminsoniy inson huquqlari standartlari bilan uyğunlaştiriş istagi bilan ajralib turişi, ularning törtta asosiy xususiyati – islomiy asos (şariat tamoyillari), madaniy relyativizm, yondaşuvlar evolyutsiyasi (1990 yilgi Qohira deklaratsiyasidan 2020 yilgi yangi tahrirgaça) hamda hujjatlarning aksariyati tavsiyaviy-deklarativ xarakterga ega ekanligi aniqlangan.

IHTning 1990 yilgi Qohira deklaratsiyasida inson huquqlari şariat me'yorlariga töliq böysundirilgan bölsa, 2020 yilgi yangi tahrirda "şariat" atamasi asosiy moddalardan çiqarilib, uning örniga "islom qadriyatlari va printsiplari" tuşunçasi kiritilgani, söz erkinligi, diniy bağrikenglik va ayollar huquqlari borasidagi normalar BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar töğrisidagi xalqaro pakti standartlariga yaqinlaştirilgani körsatib berilgan.

Muallif "Islomda bolalar huquqlari töğrisida"gi pakt (2005) IHTning bolalar huquqlari böyiça ixtisoslaştirilgan hujjati ekanini, biroq hozirga qadar uşbu Paktni IHTga a'zo davlatlardan birortasi ratifikatsiya qilmagani yoki hatto imzolamaganini alohida ta'kidlagan.

Tadqiqotda IHTga a'zo davlatlarning konstitutsiyalari ulardagi inson huquqlari va islom huquqi (şariat) örtasidagi munosabatga qarab uçta asosiy toifaga ajratilgan: 1) dunyoviy (sekulyar) davlatlar (Özbekiston, Turkiya, Qozoğiston, Qirğiziston, Senegal, Ozarbayjon va boşqalar); 2) şariat asosiy yoki yagona huquq manbai bölgan davlatlar (Eron, Saudiya Arabistoni, Afğoniston, qisman Pokiston); 3) aralaş huquqiy tizimga ega davlatlar (Misr, Malayziya, Marokaş, Iordaniya, BAA, Qatar va boşqalar).

Uşbu paragrafda IHT şartnomalarining törtta asosiy xususiyati – ular diniy va madaniy an'analarni himoya qilişni asos qilib olişi, universal huquqiy printsiplar bilan töliq uyğunlaşmasligi, köpinça majburiy xarakterga ega emas, balki siyosiy va axloqiy majburiyatlarni belgilaşi hamda amaliy tatbiqda milliy huquq tizimiga boğliq holda turliça talqin qilinişi – har tomonlama yoritilgan.

Dissertatsiyaning uçinçi bobi **"Yangi Özbekistonning Islom hamkorlik taşkiloti bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi"** deb nomlangan bölib,

unda Özbekiston Respublikasining Islom hamkorlik taşkiloti (IHT) bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligining şakllanişi va rivojlanişi, uning hozirgi holati, mavjud muammolar hamda hamkorlikni takomillaştirişning istiqbolli yönalişlari kompleks tarzda tadqiq etilgan.

Bobning birinçi paragrafida Özbekiston Respublikasining IHT bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligining taşkiliy-huquqiy asoslari va rivojlaniş bosqiçlari tahlil qilingan. Jumladan, Özbekistonning IHT bilan munosabatlari tarixi, taşkilotning yangi Nizomiga qöşilişi va uning ratifikatsiya qilinişi, şuningdek, IHT Taşqi işlar vazirlari kengaşining 2016 yil 18–19 oktyabr kunlari Toşkent şahrida «Ta'lim va ma'rifat — tinçlik va bunyodkorlik sari yöl» mavzusida ötkazilgan 43-sessiyasidagi iştiroki yoritilgan. Mazkur sessiya doirasida 118 ta rezolyutsiya va Toşkent deklaratsiyasining qabul qilinişi Özbekistonning taşkilot faoliyatidagi iştirokini tavsiflovçi muhim voqealar sifatida körib çiqilgan. Şuningdek, 2018 yil sentyabr oyida Ostona şahrida ötkazilgan IHTning fan va texnologiyalar böyiça birinçi sammitida Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan taşabbuslar hamda ularning taşkilot doirasidagi ahamiyati tahlil etilgan.

Paragrafda Özbekistonning IHT Inson huquqlari böyiça doimiy mustaqil komissiyasi (IHMDK) bilan hamkorligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, 2019 yil 7–8 oktyabr kunlari Toşkent şahrida «Tinçliksevar, demokratik jamiyatlar barpo etiş va barqaror rivojlaniş yölida yoşlar huquqlarini rağbatlantiriş va himoya qilişning ahamiyati» mavzusida ötkazilgan IHMDKning oltinçi yillik seminari hamda uning yakunida «Islom hamkorlik taşkilotiga a'zo mamlakatlarda yoşlar huquqlari töğrisida»gi Toşkent deklaratsiyasining qabul qilinişi Özbekistonning mazkur sohadagi taşabbuslari nuqtai nazaridan yoritilgan. Şuningdek, 2022 yil 24 may kuni Jidda şahrida ötkazilgan xalqaro seminar doirasida IHMDK va Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi örtasida hamkorlik töğrisidagi memorandum imzolangani hamda 2024 yil 16 iyunda IHMDK Kotibiyati ijroçi direktori Nura bint Zaid ar-Raşudning «Inson huquqlari himoyasi uçun» kökrak nişoni bilan taqdirlangani qayd etilgan.

Bundan taşqari, paragrafda Özbekistonning IHT bilan hamkorligiga doir ilmiy qaraşlar, jumladan, akademik A. Saidov va professor M. Tillabaevning munosabatlari, şuningdek, professor J. Musaevning baholari tahlil qilingan. Özbekiston delegatsiyasining IHMDK tomonidan taşkil etiladigan sessiyalar, seminarlar, ekspertlar uçraşuvlari va boşqa tadbirlarda muntazam iştirok etişi hamkorlikning institutsional jihatlarini oçib berişga xizmat qilgan.

Bobning ikkinçi paragrafi Özbekistonning IHT bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligini çuqurlaştiriş va takomillaştiriş masalalariga bağişlangan. Unda mamlakatda 2017 yildan boşlab amalga oşirilgan islohotlar jarayonida inson huquqlarini ta'minlaşning taşqi siyosatdagi ahamiyati, xalqaro taşkilotlar bilan hamkorlikni kengaytiriş hamda IHT doirasidagi institutsional aloqalarni rivojlantiriş masalalari tahlil qilingan.

Muallif Özbekiston vakillarining IHMDK faoliyatidagi iştiroki mamlakatning xalqaro inson huquqlari sohasidagi hamkorligini kengaytirişga xizmat qilişini asoslaşga harakat qilgan. Jumladan, akademik A. Saidovning 2018–2021 yillarda

Komissiya a’zosi va keyinçalik raisi sifatidagi faoliyati, şuningdek, uning taşabbusi bilan rivojlaniş huquqi va Barqaror rivojlaniş maqsadlariga oid masalalarning Komissiya kun tartibida yoritilişi tahlil etilgan. Şuningdek, 2025 yil iyun oyida IHT Taşqi işlar vazirlari kengaşining Istanbul şahrida ötkazilgan 51-sessiyasida Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi direktorining birinçi örinbosari, yuridik fanlar doktori Mirzatillo Tillaboevning IHMDK a’zoligiga saylangani mamlakatning mazkur institut bilan hamkorligini rivojlantiriş nuqtai nazaridan körib çiqilgan.

Paragrafda yoşlar huquqlariga oid Toşkent deklaratsiyasining qabul qilinişi Özbekiston va IHT hamkorligining muhim natijalaridan biri sifatida baholangan. Muallif mazkur hujjatning ahamiyatini IHTga a’zo davlatlarda yoşlar uluşining yuqoriligi, yoşlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiliş zarurati hamda yoşlar huquqlari masalasining xalqaro hamkorlik uçun umumiy yönaliş sifatidagi xususiyatlari bilan izohlagan. Şu nuqtai nazardan, yoşlar huquqlari sohasidagi hamkorlik turli davlatlar örtasida tajriba almaşiş va umumiy yondaşuvlarni işlab çiqiş uçun muhim imkoniyat sifatida körib çiqilgan.

Şu bilan birga, muallif Özbekiston va IHT örtasidagi inson huquqlari sohasidagi hamkorlikda mavjud bölgan ayrim muammoli jihatlarni ham tahlil qilgan. Xususan, 1990 yilgi Islomda inson huquqlari töğrisidagi Qohira deklaratsiyasi va 2020 yilgi Islom hamkorlik taşkilotining inson huquqlari töğrisidagi Qohira deklaratsiyasi qoidalarining Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan ayrim printsiplar, jumladan, davlatning dunyoviylik xususiyati bilan özaro nisbatiga e’tibor qaratilgan. Şuningdek, IHMDK faoliyatida a’zo davlatlardagi inson huquqlari muammolarini körib çiqiş, ularga nisbatan ta’sirçan yondaşuvlarni şakllantiriş va Komissiya faoliyatining institutsional samaradorligini oşiriş bilan boğliq masalalar muhokama qilingan.

Mazkur masalalar yuzasidan Riçard Veytz, akademik A. Saidov, D. Eşonqulova va G. Nizomova kabi tadqiqotçilarning qaraşlari, şuningdek, Entoni Tirado Çeyzning tanqidiy yondaşuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Bu esa muallifga Özbekistonning IHT bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligiga oid turli ilmiy pozitsiyalarni özaro taqqoslaş va hamkorlikni takomillaştirişning dolzarb yönalişlarini aniqlaş imkonini bergan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyatini oşiriş maqsadida muallif hamkorlikni takomillaştirişga qaratilgan qator takliflarni ilgari surgan. Jumladan, IHMDKning yillik sessiyalaridan birini Toşkent şahrida ötkaziş, Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi huzurida IHTning inson huquqlariga oid hujjatlarini milliy qonunçilikka implementatsiya qiliş masalalari böyiça ekspertlar guruhini taşkil etiş, IHTga a’zo davlatlar uçun «Yoşlar huquqlari indeksi»ni joriy qiliş, IHMDKning Markaziy Osiyo böyiça mintaqaviy ofisini Toşkent şahrida oçiş hamda Özbekistonda IHTning inson huquqlari böyiça malaka oşiriş markazini taşkil etiş takliflari bayon etilgan.

